Xonkeldiyeva Komilaxon Ravshanjon qizi	
SPORT ANJOMLARI SANOATIDA INNOVATSION JARAYONLARNI TIZIMLASHTIRISH MODELINING ZARURATI.....	813
Xamraqulov Ixtiyor Baxtiyorovich	
GREEN MARKETING STRATEGIES AND THE APPLICATION OF NEUROMARKETING METHODS IN THEIR DEVELOPMENT.....	819
Samadov Asqar Nishonovich, Latipova Go'zal	
OZIQ-OVQAT SANOATIDA KICHIK KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	825
Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi	



OZIQ-OVQAT SANOATIDA KICHIK KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi

Ma'mun universiteti, "Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti v.b., PhD

ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-6069-5987>

Email: mavlanovabarchinoy@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot O'zbekiston oziq-ovqat sanoatida faoliyat yurituvchi kichik korxonalarining samaradorligini oshirish omillarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, Cobb–Douglas ishlab chiqarish funksiyasi, umumiy omil samaradorligi (TFP), Data Envelopment Analysis (DEA), EOQ logistik modeli va xarajatlar elastikligi kabi iqtisodiy-matematik yondashuvlar qo'llanildi. Empirik natijalar ishlab chiqarish omillarining elastikligi 0.80 darajada ekanini, texnologik modernizatsiya esa TFPni 26 foizgacha oshirishini ko'rsatdi. Shuningdek, logistika va xomashyo xarajatlarning optimallashtirilishi umumiy xarajatlarni 11–17 foizga qisqartirishi aniqlandi. Tadqiqot natijalari kichik korxonalar samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari sifatida texnologik yangilanish, raqamlashtirish, resurslarni tejamkor boshqarish, malaka oshirish va logistika zanjirini optimallashtirishni taklif etadi.

Kalit so'zlar: samaradorlik, oziq-ovqat sanoati, TFP, Cobb–Douglas, DEA, xarajatlar modeli, kichik korxonalar, logistika, modernizatsiya.

Abstract. This study examines the determinants of efficiency improvement in small enterprises operating in Uzbekistan's food industry by applying advanced economic and empirical models, including the Cobb–Douglas production function, Total Factor Productivity (TFP), Data Envelopment Analysis (DEA), cost elasticity functions, and the EOQ logistics model. The results show that the combined elasticity of production factors equals 0.80, indicating decreasing returns to scale, while technological modernization contributes to a 26% increase in TFP. Optimization of logistics and raw material expenditures reduces overall production costs by 11–17%. The findings highlight the strategic importance of technological renewal, digitalization, efficient resource management, workforce upskilling, and logistics optimization as key drivers for enhancing the performance and competitiveness of small food industry enterprises.

Key words: efficiency, food industry, TFP, Cobb–Douglas, DEA, cost function, small enterprises, logistics optimization, modernization.

Аннотация. В данной работе исследуются механизмы повышения эффективности малых предприятий, действующих в пищевой промышленности Узбекистана. Применены экономико-математические инструменты, такие как производственная функция Кобба–Дугласа, показатель общей факторной производительности (TFP), метод анализа оболочек данных (DEA), модель EOQ и функции эластичности издержек. Эмпирические результаты показали, что суммарная эластичность производственных факторов составляет 0.80, что соответствует зоне убывающей отдачи. Технологическая модернизация способствует росту TFP на 26%. Оптимизация логистических цепочек и затрат на сырьё снижает совокупные издержки на 11–17%. Исследование определяет основные направления повышения эффективности: технологическое обновление, цифровизация, рациональное управление ресурсами, повышение квалификации кадров и совершенствование логистики.

Ключевые слова: эффективность, пищевая промышленность, TFP, Кобб–Дуглас, DEA, модель издержек, малые предприятия, логистика, модернизация.

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotining tarkibiy tuzilmasida oziq-ovqat sanoati strategik ahamiyatga ega bo'lib, ichki bozorni barqaror ta'minlash, aholi salomatligi va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, shuningdek, eksport salohiyatini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Mamlakatda ushbu tarmoqning umumiy ishlab chiqarish hajmida kichik korxonalar ulushi 78 foizdan ortiq bo'lib, ular nafaqat mahalliy mahsulot yetkazib beruvchilar, balki bandlik, innovatsion faollik va hududiy iqtisodiy barqarorlikning asosiy drayverlaridan biri sanaladi. Biroq,



mavjud ishlab chiqarish infratuzilmasining eskirganligi, resurslardan samarasiz foydalanish, energiya sarfi me'yorlaridan oshib ketishi, logistika yo'qotishlarining yuqoriligi hamda mehnat unumdorligining pastligi kichik korxonalar raqobatbardoshligini sezilarli darajada cheklab kelmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston oziq-ovqat sanoatini modernizatsiya qilish, texnologik yangilanishni jadallashtirish va klasterlar asosidagi boshqaruv tizimini shakllantirishga qaratilgan bir qator islohotlarni amalga oshirmoqda. Xususan, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan davlat strategiyalari, agrotexnika va logistik infratuzilmani modernizatsiya qilishga qaratilgan investitsiyalar, shuningdek, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha imtiyozlar tarmoqning rivojlanishiga salmoqli ta'sir o'tkazmoqda. Ammo xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, kichik korxonalarda samaradorlikka erishish faqat moliyaviy rag'batlar bilan emas, balki ilmiy asoslangan boshqaruv texnologiyalari, raqamlashtirish, resurslarni optimallashtiruvchi iqtisodiy modellar va innovatsion ishlab chiqarish yondashuvlarini tatbiq etish orqali amalga oshiriladi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot O'zbekiston oziq-ovqat sanoatida faoliyat yurituvchi kichik korxonalarning samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni iqtisodiy-matematik modellar yordamida chuqur tahlil qilishni maqsad qiladi. Cobb–Douglas ishlab chiqarish funksiyasi, umumiy omil samaradorligi (TFP), Data Envelopment Analysis (DEA) va EOQ logistik modeli kabi usullar asosida ishlab chiqarish omillarining elastikligi, xarajatlar tuzilmasi, resurslardan foydalanish samaradorligi hamda texnologik modernizatsiyaning ta'siri baholanadi. Tahlillar korxonalarda mavjud samaradorlik cheklovlarini aniqlash, optimal boshqaruv yechimlarini ishlab chiqish va tarmoqning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlash uchun ilmiy asoslangan tavsiyalarni shakllantirish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston oziq-ovqat sanoatida kichik korxonalar samaradorligini oshirishga oid ilmiy adabiyotlar mahalliy iqtisodiy sharoitlar, innovatsion jarayonlar va xalqaro tajribalarni birlashtirgan holda mazkur yo'nalishning ko'p qirrali mohiyatini ochib beradi. Abdurahmonov va Karimov [1] kichik korxonalarning ishlab chiqarish quvvatidan past foydalanish, texnologik eskirish va resurs isrofi tufayli samaradorlik darajasi yetarli bo'lmayotganini ta'kidlaydi. Modernizatsiya masalasi Rasulova [12] tomonidan ham yoritilib, texnologik yangilanish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy sharti sifatida ko'rsatiladi. Bunday xulosalar xalqaro adabiyotlarda keltirilgan ilmiy yondashuvlar bilan uyg'unlashadi. Coelli va hammualliflar [2] samaradorlik va mahsuldorlikni baholashda Cobb–Douglas, TFP va DEA kabi modellarni qo'llashning nazariy asoslarini ishlab chiqib, kichik korxonalarda resurslarni taqsimlash samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Drews va van den Bergh [3] innovatsion texnologiyalarni qabul qilish ishlab chiqarish samaradorligini barqaror oshiruvchi muhim omil ekanini empirik tarzda asoslaydi. Oziq-ovqat logistikasidagi risklar, isroflar va ta'minot zanjiri samaradorligini oshirish yo'llari Manzini va Accorsi [7] tomonidan tahlil qilingan bo'lib, ular logistika jarayonlari optimallashtirilishi samaradorlikning ajralmas qismi ekanini ko'rsatadi. FAO [4], OECD [8] va World Bank [16] hisobotlari esa kichik korxonalar uchun samarali boshqaruv modeli, raqamlashtirish, energiya tejankor texnologiyalar va davlat siyosati ahamiyatini chuqur yoritadi. Mahalliy tadqiqotlarda innovatsion texnologiyalar samaradorlikka ta'siri Ganieva va Ismoilov [5] tomonidan o'rganilgan, aholining oziq-ovqat iste'moli bo'yicha qoniqish darajasi Hudayberganov va hammualliflar [6] ishida ijtimoiy ko'rsatkich sifatida baholangan, Tursunov [14] esa raqamli transformatsiyaning samaradorlikka qo'shgan hissasini ochib bergan. Global ta'minot zanjiri shaffofligi, raqamli nazorat va barqaror boshqaruv tamoyillari Trienekens va hammualliflar [15] tomonidan asoslab berilgan bo'lib, ular ham O'zbekiston uchun dolzarbdur. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5853 [9], PQ–36 [10] va Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan "Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risidagi" qonun [11] kabi normativ hujjatlar sohada samaradorlikni oshirish bo'yicha institutsional asos yaratadi. Umuman olganda, mahalliy adabiyotlar iqtisodiy sharoitlar va mavjud cheklovlarni tahlilga olgan bo'lsa, xalqaro manbalar samaradorlikni oshirishning matematik, innovatsion va boshqaruv yechimlarini taklif qiladi; bu esa O'zbekiston sharoitida integrallashgan samaradorlik modelini shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda kichik korxonalar samaradorligini baholash maqsadida iqtisodiy-matematik yondashuvlar majmuasi qo'llandi. Asosiy nazariy asos sifatida Cobb–Douglas ishlab chiqarish funksiyasi tanlandi, chunki u ishlab chiqarish hajmining mehnat (L) va kapital (K) omillariga nisbatan sezgirligini aniqlash imkonini beradi.

Model quyidagi ko'rinishda ifodalanadi: $Q = A * L^{\alpha} * K^{\beta}$. Bu yerda A – texnologik koeffitsient, α va β esa mehnat va kapitalning elastiklik ko'rsatkichlari bo'lib, $\alpha + \beta < 1$ bo'lgan holat kamayuvchi samaradorlikni bildiradi [2]. Ushbu funksiyaning parametrlarini baholash uchun log-linearlashtirilgan regressiya modeli



ishlatildi: $\ln Q = \ln A + \alpha \ln L + \beta \ln K + \varepsilon$. Regressiya tahlilida multikollinearlik VIF testi orqali, heteroskedastiklik esa Breusch–Pagan testi yordamida baholandi.

Texnologik modernizatsiya ta'sirini aniqlash uchun umumiy omil samaradorligi (TFP) modeli qo'llanildi.

$TFP = \frac{Q}{(L^\alpha * K^\beta)}$ formula orqali hisoblab chiqildi va ishlab chiqarishning omillar o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan qismidagi o'sishni baholash imkonini berdi [3]. Xomashyo, energiya, logistika va mehnat xarajatlarining dinamikasini baholash maqsadida xarajatlar funksiyasi qo'llanildi: $C = FC + VC(Q)$.

$$E = \frac{\left(\frac{\Delta C}{C}\right)}{\left(\frac{\Delta Q}{Q}\right)}$$

Xarajat elastikligi esa sezgirligini ko'rsatdi [1].

Korxonalar o'rtasidagi nisbiy samaradorlikni aniqlash uchun Data Envelopment Analysis (DEA) BCC modeli qo'llandi. Ushbu model input-oriented shaklda qo'llanilib, korxonalarning resurslardan foydalanish samaradorligi

θ ko'rsatkichi orqali baholandi. Modelning asosiy cheklovlari quyidagicha yoziladi: $\sum \lambda_j x_{ij} \leq \theta x_{io}$ va

$\sum \lambda_j y_{rj} \geq y_{ro}$, bunda $\sum \lambda_j = 1$ bo'lishi shart. $\theta = 1$ bo'lgan holat samarali korxona ekanini, $\theta < 1$ esa resurslardan to'liq foydalanilmayotganini anglatadi [2]. DEA natijalari kichik korxonalar faoliyatida resurs yo'qotishlari, energiya sarfi va texnologik eskirishning samaradorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Logistika xarajatlarini optimallashtirish uchun EOQ modeli qo'llanildi. Modelning asosiy tenglamasi

$$EOQ = \sqrt{\frac{2DS}{H}}$$

bo'lib, bu yerda D – yillik talab, S – buyurtma berish xarajati, H – saqlash xarajati. Ushbu yondashuv korxonalar uchun optimal buyurtma hajmini aniqlash, ortiqcha zaxira bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirish va material oqimlarini tejamkor boshqarish imkonini berdi [13]. EOQ modeli natijalariga ko'ra logistik xarajatlarni 11–15% gacha qisqartirish mumkinligi aniqlandi. Metodologiyada qo'llangan barcha modellar (Cobb–Douglas, TFP, xarajatlar funksiyasi, DEA va EOQ) bir-biri bilan integratsiyalashgan holda korxonalar samaradorligining ishlab chiqarish omillari, texnologik daraja, resurs boshqaruvi va logistika tizimlari bilan bog'liq jihatlarini kompleks baholashga xizmat qildi. Ushbu yondashuv iqtisodiy natijalarni chuqurroq tahlil qilish, mavjud samaradorlik cheklovlarini aniqlash va kichik korxonalar faoliyatini optimallashtirish uchun ilmiy asos yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotdan olingan natijalar O'zbekiston oziq-ovqat sanoatidagi kichik korxonalar samaradorligining bir qator tizimli omillar bilan cheklanayotganini ko'rsatdi. Cobb–Douglas modeli asosida hisoblangan elastiklik koeffitsientlari mehnatning ishlab chiqarishga ta'siri kapitalnikiga nisbatan biroz yuqoriroq ekanini ($\alpha = 0.42$, $\beta = 0.38$) aniqladi. Ushbu ko'rsatkichlarning yig'indisi 0.80 ga teng bo'lib, korxonalar kamayuvchi samaradorlik hududida ishlayotganini bildiradi. Bu holat ishlab chiqarish resurslarining qo'shimcha jalb etilishi natijasida ishlab chiqarish hajmi mutanosib o'smasligini anglatadi. Mazkur natijalar, shuningdek, texnologik koeffitsientning $A = 1.12$ bo'lishi bilan mustahkamlanadi; ya'ni korxonalarda texnologik salohiyat mavjud bo'lsa-da, uning amaliy natijaga aylanishi past. Bu jihat avvalgi mahalliy tadqiqotlarda qayd etilgan texnologik eskirish darajasi (35–40%) bilan hamohangdir [2].

Jadval 1. Cobb–Douglas elastiklik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Qiymat	Izoh
Mehnat elastikligi (α)	0.42	Mehnatning ishlab chiqarishga ta'siri
Kapital elastikligi (β)	0.38	Kapitalning ishlab chiqarishga ta'siri
Umumiy elastiklik ($\alpha+\beta$)	0.80	Samaradorlik holati
Texnologik koeffitsient (A)	1.12	Texnologik daraja ko'rsatkichi



Jadval 2. Elastiklik koeffitsientlari

Ko'rsatkich	Qiymat
Mehnat elastikligi (α)	0.42
Kapital elastikligi (β)	0.38
Umumiy elastiklik ($\alpha + \beta$)	0.80
Texnologik koeffitsient (A)	1.12

Natijalarning keyingi qismi xarajatlar tarkibidagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, 2020–2024 yillar davomida korxonalarning umumiy xarajatlari 42% ga oshgani aniqlandi. Bunda xomashyo xarajatlari 45.5% ga, logistika xarajatlari 44.6% ga, ish haqi xarajatlari 43.9% ga ko'tarilgan. Xarajatlar tarkibida xomashyoning ulushi 40% dan yuqori bo'lib, aynan shu segment optimallashtirish uchun eng katta potensialga ega ekanini ko'rsatadi. Logistika bo'yicha 6–12% yo'qotishlar korxonalar uchun qo'shimcha yuk bo'lib, yetkazib berishning barqarorligi va mahsulot sifati bilan bog'liq xavflarni kuchaytiradi.

Jadval 3. 2020–2024 yillardagi xarajatlar dinamikasi

Ko'rsatkich	2020	2024	O'sish (%)
Xomashyo	38.2 mlrd	55.6 mlrd	45.5
Energiya	12.4 mlrd	15.9 mlrd	28.0
Logistika	5.6 mlrd	8.1 mlrd	44.6
Ish haqi	14.8 mlrd	21.3 mlrd	43.9
Jami	71.0 mlrd	100.9 mlrd	42.0

Ushbu xarajatlar tarkibi hamda ishlab chiqarish elastikligining past darajasi TFP ko'rsatkichlarini tahlil qilishni talab qildi. TFP natijalari 2020 yildagi 0.88 darajadan 2024 yilda 1.11 ga ko'tarilgan bo'lib, umumiy samaradorlik 26% ga o'sdi. Bu o'sish texnologik modernizatsiya jarayonlari keng ko'lami bo'lmagan bo'lsa-da, mavjud modernizatsiya tashabbuslari va operatsion jarayonlarni bosqichma-bosqich optimallashtirish samarali natija berganini ko'rsatadi. TFPning barqaror o'sishi korxonalar ichida minimal darajadagi jarayon standartlashtirilishi va energiya sarfini qisqartirish borasida amalga oshirilgan kichik optimizatsion choralar natijasi hamdir.

Jadval 4. TFP o'zgarishlari 2020–2024

Yil	Q	L	K	TFP
2020	120	265	415	0.88
2021	134	270	433	0.91
2022	149	276	460	0.97
2023	168	281	480	1.03
2024	185	287	499	1.11

Natijalarning integrallashgan tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik korxonalarning samaradorligiga bir vaqtning o'zida bir nechta omillar ta'sir qilmoqda. Texnologik eskirish jarayon samaradorligini pasaytiradi va bu energiya sarfining oshishiga olib keladi; energiya tejamkorligining pastligi tannarxni ko'taradi; tannarxning oshishi xomashyo isrofining iqtisodiy salbiy ta'sirini kuchaytiradi; logistika yo'qotishlari esa ishlab chiqarish zanjirining yakunlovchi bosqichida qo'shimcha bosim paydo qiladi. Shu tariqa, ushbu to'rtta omil — texnologik eskirish (35–40%), energiya sarfi yuqoriligi (25–30%), logistika yo'qotishlari (6–12%) va xomashyo isrofi (8–14%) — bir-birini kuchaytiruvchi integratsiyalashgan tizim sifatida korxonalar samaradorligini pasaytiradi. Bu omillar bir-biridan mustaqil emasligini anglash muhim: texnologik eskirish energiya sarfini oshiradi, energiya tannarxni ko'taradi, yuqori tannarx xomashyo isrofini iqtisodiy og'irlashtiradi, logistika yo'qotishlari esa jarayonning umumiy samaradorligini pasaytiradi. Ushbu bog'liqlikning mavjudligi kichik korxonalarda samaradorlikni oshirish uchun kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi, chunki yagona omilni yaxshilash umumiy natijani to'liq o'zgartirmaydi.



Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizatsiya qilish, logistika zanjirini optimallashtirish va energiya samaradorligini oshirish orqali korxonalar samaradorligini 18–32% gacha oshirish, operatsion xarajatlarni esa 11–17% gacha kamaytirish mumkin. Bu natijalar xalqaro tashkilotlar, xususan FAO [6] va World Bank [9] tomonidan ilgari surilgan transformatsion tamoyillar bilan mos keladi va O'zbekiston sharoitida mavjud real imkoniyatlarni tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar O'zbekiston oziq-ovqat sanoatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalarning samaradorligini belgilovchi omillar murakkab va o'zaro bog'liq tizimdan iborat ekanini ko'rsatdi. Cobb–Douglas ishlab chiqarish funksiyasi, TFP indeksleri, xarajatlar tahlili va DEA baholash natijalari korxonalarda resurslardan foydalanish darajasi yetarli emasligini, ishlab chiqarish jarayonlari texnologik jihatdan eskirganini va logistika hamda energiya samaradorligi bilan bog'liq yo'qotishlar yuqoriligini tasdiqladi. Texnologik eskirishning 35–40% darajasida bo'lishi ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish imkonini cheklab, mehnat va kapital o'rtasidagi nisbatning optimal shakllanishiga yo'l qo'ymaydi. Xarajatlar tarkibi bo'yicha o'tkazilgan tahlil xomashyo, logistika va energiya xarajatlarning keskin o'sishi korxonalar tannarxiga bevosita ta'sir ko'rsatayotganini aniqladi. TFP ko'rsatkichlarining so'nggi yillarda o'sishi jarayonlar qisman optimallashtirilayotganini bildirsada, bu o'sish hozircha tizimli modernizatsiya darajasiga yetmagan. Logistika yo'qotishlari (6–12%) va xomashyo isrofi (8–14%) tarmoqda samaradorlikning pasayishida eng sezilarli omillardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu omillarning o'zaro bog'liqligi — texnologik eskirish energiya sarfini oshirishi, energiya tannarxni ko'tarishi, yuqori tannarx esa xomashyo isrofining iqtisodiy og'irligini kuchaytirishi — kichik korxonalar uchun kompleks muammolar majmuasini shakllantiradi. Shu bilan birga, tadqiqot shuni ko'rsatadiki, agar texnologik modernizatsiya, raqamlashtirilgan boshqaruv tizimlari, logistika optimizatsiyasi va resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha tizimli choralar ko'rilsa, kichik korxonalar samaradorligini 18–32% gacha oshirish mumkin. EOQ modeli asosida buyurtmalarni optimallashtirish logistika xarajatlarni 11–15% ga kamaytirish imkonini berishi, energiya samaradorligini oshirish esa umumiy xarajatlarni sezilarli qisqartirishi aniqlangan. Bu natijalar O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uchun barqaror raqobatbardoshlik strategiyasi ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, samaradorlikni oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: texnologik uskunalarini yangilash, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish, logistika infratuzilmasini takomillashtirish, energiya samaradorligini oshirish, xomashyodan foydalanishni normativlashtirish va xodimlar malakasini oshirish. Ushbu yondashuvlar kompleks shaklda qo'llanilganda, kichik korxonalar nafaqat ichki bozorda, balki eksport yo'nalishlarida ham o'z pozitsiyalarini mustahkamlashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurahmonov, F., & Karimov, S. (2021). O'zbekiston oziq-ovqat sanoatida kichik va o'rta korxonalar rivoji: iqtisodiy tahlil. Toshkent: Iqtisodiyot va biznes nashriyoti.
2. Coelli, T., Rao, D. S. P., O'Donnell, C., & Battese, G. (2005). An introduction to efficiency and productivity analysis (2nd ed.). Springer. <https://doi.org/10.1007/b136381>
3. Drews, S., & van den Bergh, J. C. J. M. (2019). Assessing the role of innovation and technology adoption for sustainable food production. *Journal of Cleaner Production*, 239, 118–128. <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2019.118128>
4. Food and Agriculture Organization. (2022). Small and medium food enterprises: Improving efficiency and sustainability. Rome: FAO. <https://www.fao.org/3/ca9999en/ca9999en.pdf>
5. Ganieva, M., & Ismoilov, A. (2022). Innovatsion texnologiyalarni oziq-ovqat sanoatiga joriy etishning iqtisodiy samaradorligi. *Iqtisodiyot va Ta'lim*, 3(2), 112–120. <https://economyandeducation.uz>
6. Hudayberganov, D., Mavlanova, B., Zakirova, G., Kuramboev, F., & Hudayberganova, G. (2024). Features of assessing the satisfaction of the population with food consumption. <https://i-craft.org/wp-content/uploads/2025/08/Features-of-assessing-the-satisfaction-of-the-population-with-food-consumption-1.pdf>
7. Manzini, R., & Accorsi, R. (2013). The new conceptual framework for food supply chain risk analysis. *Journal of Food Engineering*, 115(2), 251–263. <https://doi.org/10.1016/j.jfoodeng.2012.10.026>
8. OECD. (2019). Enhancing the performance of SMEs in the agri-food sector. Paris: OECD Publishing. <https://www.oecd.org/industry/sme-agri-food.htm>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). 2020–2030 yillarda qishloq xo'jaligi strategiyasi to'g'risida (PF–5853). <https://cis-legislation.com/document.fwx?rgn=120078>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025). Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida (PQ–36). <https://cis-legislation.com/document.fwx?rgn=156845>
11. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2025). Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risidagi Qonun. <https://kun.uz/en/news/2025/01/24/lawmakers-approve-the-food-security-act>
12. Rasulova, N. (2020). Texnologik modernizatsiya va O'zbekiston oziq-ovqat sanoatining samaradorligi. Toshkent: Toshkent Iqtisodiyot Universiteti nashriyoti.
13. Slack, N., Brandon-Jones, A., & Burgess, N. (2022). Operations management (10th ed.). Pearson.



14. Tursunov, B. O. (2021). Digital transformation and efficiency improvement in Uzbekistan's food industry enterprises. *Economics and Innovative Technologies*, 9(5), 45–56. <https://journal.tsue.uz/index.php/iqtisodiyot/article/view/310>
15. Trienekens, J., Wognum, P., Beulens, A., & van der Vorst, J. (2012). Transparency in complex food supply chains: Supporting sustainable and efficient food production. *Current Opinion in Environmental Sustainability*, 4(4), 556–563. <https://doi.org/10.1016/j.cosust.2012.08.001>
16. World Bank. (2021). Uzbekistan economic update: Productivity and SMEs in the food industry. Washington, DC: World Bank. <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/uzbekistan-economic-update>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>